



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI (2021- yil yanvar- iyun oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra **1932,1** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **8,4** ming kishiga yoki **0,4 %** ga ko'paydi. Jumladan shahar aholisi soni **946,4** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **985,7** ming kishi (**51,0 %**)ni tashkil etdi.

Ming kishi



Doimiy aholi soni

1932,1



✓ Tug'ilganlar soni

16,8



✓ O'lganlar soni

4,2



✓ Nikohlar soni

7,8



✓ Ajrimlar soni

0,7



✓ Ko'chib kelganlar soni

7,3



✓ Ko'chib ketganlar soni

11,5



Shahar joylarda

946,4 ming kishi


Doimiy aholi soni

1932,1 ming kishi

Qishloq joylarda

985,7 ming kishi


Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (1- iyul holatiga ko'ra, ming kishi)



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **9,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Doimiy aholi sonining yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (jami aholi soniga nisbatan, % da)



■ mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ■ mehnatga layoqatli yoshdagilar ■ mehnatga layoqatli yoshdan kattalar



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar- iyun oylari uchun, ming kishi)

	2020- yil	2021- yil
Doimiy aholi soni	1910,3	1932,1
Tug'ilganlar	17,2	16,8
Vafot etganlar	3,9	4,2
Aholining tabiiy o'sishi	13,3	12,6
Kelganlar	3,5	7,3
Ketganlar	4,8	11,5
Migratsiya saldosi	-1,3	-4,2
Tuzilgan nikohlar	4,9	7,8
Nikohdan ajralishlar	0,5	0,7

1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille

tug'ilish	18,2	17,5
o'lim	4,2	4,4
aholining tabiiy o'sishi	14,0	13,1
tuzilgan nikohlar	5,2	8,2
nikohdan ajralishlar	0,5	0,7

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar- iyun oylarida **16,8** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (*bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi*), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **17,5** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamayganligi kuzatildi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 18,2 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.


Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- iyun)



Tug'ilganlar soni,
kishi



Tug'ilish koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan,
promille




Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida **4,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,2** promillega o'sganligi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan) kuzatildi



Vafot etganlar soni,
kishi



O'lim koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan,
promille



Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2021- yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2021-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,4 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,1 % i - o'simtalardan, 8,0 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,3 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 % i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,0 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 69,4 % i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,7 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,0 % i - tug'ma anomaliyalardan, 1,9 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan 1,9 % i - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 7,1 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Tabiiy o'sish. 2021- yilning yanvar- iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 12,6 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga (2020- yilning yanvar- iyun oylarida 13,3 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

Tabiiy o'sish — 12,6 ming kishi




Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni

(yanvar- iyun oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti

(2021- yil yanvar- iyun oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)




Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar- iyun oylarida eng yuqori nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Nukus tumanida** (10,3), **Kegeyli** (9,5), **Qo'ng'irot** (9,2) va **Nukus shahrida** (9,1) kuzatildi.


Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar- iyun oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Taxtako'pir** (7,0), **Mo'ynoq** (6,9), **Qorao'zak** (6,6), va **Taxiatosh** (6,2) tumanlarida kuzatildi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar
soni to'g'risida ma'lumot**
(yanvar-iyun oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti
(2021- yil yanvar- iyun oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)



Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida eng yuqori nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) Xo'jayli (1,1), Qo'ng'iroq (1,0), Shumanay (1,0), va Kegeyli (0,9), tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida eng kam nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Qorao'zak** (0,5), **Taxtako'pir** (0,5), **Mo'ynoq** (0,4) va **Bo'zatov** (0,2) tumanlarida kuzatildi.





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI



Aholi migratsiyasi



	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar soni, kishi	3 456	7 254
Ko'chib ketganlar soni, kishi	4 778	11 491
Migratsiya saldosи, kishi	-1 322	-4 237

Migratsiya. 2021- yil yanvar- iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7254 kishini tashkil etdi.

2021- yil yanvar- iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib ketganlar soni 11491 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosи. 2021- yil yanvar-iyun oylarida migratsiya saldosи minus 4237 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 1322 kishi bo'lган.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

**Shahar va tumanlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(2021- yil yanvar- iyun uchun, kishi)**

	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7254	11491	-4237
Nukus shahri	2312	2102	210
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	202	592	-390
Beruniy	159	400	-241
Bo‘zatov	1171	1211	-40
Qorao‘zak	106	443	-337
Kegeyli	325	818	-493
Qo‘ng‘irot	247	738	-491
Qonliko‘l	193	325	-132
Mo‘ynoq	198	150	48
Nukus	413	590	-177
Taxiatosh	365	561	-196
Taxtako‘pir	105	308	-203
To‘rtko‘l	277	430	-153
Xo‘jayli	518	1002	-484
Chimboy	266	1006	-740
Shumanay	157	363	-206
Ellikqal'a	240	452	-212



Poytaxtdagi demografik holat




Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga **326,1** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **2,3** ming kishiga yoki **0,7 %** ga o'sgan.



Tug'ilganlar soni,
kishi



Tug'ilish koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan,
promille



2021- yilning yanvar-iyun oylarida Nukus shahrida **2,8 ming** bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan **17,2** promilleni tashkil etdi (2020- yilning mos davrida **17,2** promille bo'lgan).



Nukus shahrida tuzilgan nikohlar va
nikohdan ajralishlar



Nikoh. FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida **1463** ta nikohlar qayd etildi.


1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **9,1** promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **4,6** promillega ko'paydi (2020- yilning mos davrida **4,5** promille bo'lgan).



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Nikohdan ajralishlar FHDYO
organlarida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida **136** ta nikohdan ajralishlar qayd etildi va 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,1** ga ko'paydi. 2020- yilning mos davrida **0,7** promille bo'lgan.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi**
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57